

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobbiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva, f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: *N.Yusupov.*

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-maydagi kengaytirilgan 5-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 5). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023

сентябрь. ЎРҚ-637-сон.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент. 2022. 22 январь. ПФ-60-сон.

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. – Тошкент. 2017. 3 июнь. ПК-3031-сон.

5.Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис. ... пед. фан. ном. – Тошкент: 2010. – 157 б.

6.Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Монография. – Наманган. 2022. – 112 б.

YOSHLARGA KURASHNING TA'LIMIIY VA TARBIYAVIY AXAMIYATINI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

A.R.Abdulaxatov Tosh.vil. CHDPI. dotsent

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada kurash sportining yoshlar tarbiyasida ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, manaviy –axloqiy tarbiya vositasi ekanligi aytib o'tilgan. Kurashning ta'lim-tarbiya jarayonida va sport musobaqalarida yoshlarga millatimizning faxri, iftixori ekanligini, uning shaxsni xar tomonlama uygun rivojlantirishda tutgan o'rni haqida malumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Kurash sporti, polvon , kurash ilmi, kurash ma'naviyati, kurashning ilmiy yangiliklari, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi, kurash milliy qadriyat, kurash texnikasi, kurash falsafasi.*

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalari o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Kurash azal-azaldan oliyjanoblik, mardlik va halollik timsoli, xalqimizning bir necha ming yillik tarixga ega milliy-madaniy me'rosning qismi va bebaho boyligi xisoblanadi.

Barchasining maqsadi bitta – raqibni yengish, yengganda ham kuragini yerga tekkizib, yengish. Faqat bunga erishish yo'llari, usullari biroz farqlanadi.

Aslida "kurash" so'zi halollik va to'g'rilikni ifodalaydi. Boshqa turlarni kamsitmagan holda aytish mumkin-ki, kurash ularning orasidagi eng to'g'ri va haloli.

Kurashning ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha olimlar tomonidan bugungacha muayyan darajada amaliy ishlar olib borilgan. Xususan, kurashning falsafiy, ma'naviy asoslari, uning shaxs tarbiyasidagi o'rni kabi masalalar O'.Ibrohimov, X.T.Rofiev, F.Q.Axmedov, A.R.Abdulaxatov, A.N.Shopulatov kabilar tomonidan o'rganilgan. Kurashchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish, kurash usullarini samarali

o'rgatish hamda mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish bo'yicha J.Toshpulatov, A.Atoev, F.A.Kerimov, T.S.Usmonxo'jaev, I.B.Aliev, Sh.Keldiyorov kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, kurash bo'yicha bugungacha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari kurashni rivojlantirishning zamonaviy ehtiyojlarini to'ldira olmaydi. Mazkur tajriba natijalari xalqaro va mahalliy kurash mutaxassislariga kurashning ilmiy asoslarini ochib berish vazifasini to'raligicha bajarmaydi.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etish kerakligi ko'rsatilgan. Shuning uchun xam bugun mamlakatimizning barcha ta'lim muassasalarida: bog'cha, umumta'lim maktablarida, litsey, kollejlarda, Oliy ta'lim muassasalarida, BO'SM, IOZMI, oliy sport maxorati maktablarida kurashni o'rgatish, yuksak sport san'ati maxoratiga erishish va uni yanada rivojlantirishga katta e'tibor berilmokda

Kurash adolatli usul bilan maqsadga erishishni anglatadi. Ma'lumki, mazkur sport turi ko'p asrlar muqaddam O'zbekiston hududida vujudga kelgan. Yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" hamda Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarlarida u bilan shug'ullanish inson salomatligini mustahkamlash, ruhini tetiklashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritilgan. Binobarin, o'n to'rtinchi asrdayoq Amir Temur o'zining muzaffar qo'shinida jismoniy tayyorgarlik hamda mudofaa qobiliyatini kuchaytirishda kurashdan unumli foydalangan.

Kurashning rivojlanishi nafaqat yoshlar o'rtasida, balki qariyalar o'rtasida ham tashkil etilishi, shug'ullanuvchilar o'rtasida ma'naviy sog'lom turmush tarzini tarkib toptirishga olib kelmoqda. Kurash bo'yicha murabbiylar tomonidan nafaqat natijalar orqasidan quvish, balki kurash ma'naviyatimizning va qadriyatimizning ajralmas qismi bo'lganligi tufayli ham yoshlar o'rtasida kurash ma'naviyati, falsafasi bosqichma-bosqich shakllantirilib borilmoqda.

Bir qarashda kurash mazmunini ma'lum darajadagi tayyorgarlikdan o'tgan sportchilar bellashuvi, ularning bir-birini jismonan, kuch ishlatib mag'lub bo'lishga majbur etishida ko'rish mumkin. Ammo, kurash bo'yicha musobaqa qoidalari va umume'tirof etgan normalari sportchilarga, murabbiylarga va hakamlarga shunday talablar qo'yganki, natijada, musobaqa faoliyati ishtirokchilari mashg'ulotlar, musobaqalar va sport tadbirlari jarayonida umuminsoniy qadriyatlar mezonini doirasida tarbiyalanib, shakllanib boradilar. Zero, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari hamda sport musobaqalari ular ishtirokchilarining va tomoshabinlarning sog'lig'iga, sha'ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazilmaydigan tarzda o'tkazilishi kerak. Sportchilarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga olib keladigan, shuningdek ularning sport jarohatlari olishiga sabab bo'ladigan tayyorgarlik uslublaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kurash musobaqalari qoidalari ma'lum talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ishtirokchilardan ularga qat'iy amal qilishni talab etadi. Ayni shu holatda kurash o'zining yuqori darajadagi insonparvarlik xususiyatini namoyish qiladi.

Inson, uning salomatligini saqlash va mustahkamlash butun dunyo tibbiyot sohasi oldida turgan asosiy vaziflardan hisoblanadi. Tibbiyot olamida "kasallikni davolagandan ko'ra uning oldini olgan yaxshi" tushunchasi mavjud. Texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonda kam harakatlilik insonlar uchun ma'lum darajadagi muammolarni, xususan, harakatsizlik bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni yuzaga keltirmoqda. Reja asosida kurash bilan muntazam shug'ullanishi organizmning harakatga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Natijada, organizm sog'lom va baquvvat

bo'lishiga erishiladi. Kurashning umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilishining asosiy sabablaridan biri ham shundadir.

Kurashning shaxs tarbiyasidagi o'rni, uning pedagogik ahamiyati yuqori darajada. Mazkur fikrlarni to'laqonli tasdiqlash uchun kurash qoidalarida nazarda tutilgan holatlarni tavsiflash o'rinli. Kurash sport turi or-nomus halollik, vatanparvarlik, oliyjanblik, bag'rikenglik, kabi xalqimizga xos fazilatlarini o'zida mujassam etgani bilan alohida ahamiyatlidir.

Kurash, albatta, ikki kishining o'zaro kuch sinashi, biri ikkinchisini yengish uchun qiladigan harakatlarga emas, buning o'z falsafasi, mazmuni, mohiyati bor. Unga mardonavorlik xos, u polvonni, yengishi, yengilishidan qat'iy nazar, hurmat qiladigan sport turidir.

Kurash mashg'ulotlari va musobaqalari tom manodagi falsafiy asoslarga ega. Uning muxim jixati shundaki, bunda shaxs birinchi o'ringa qo'yiladi. Shu sababdan xam kurash nazariyasi va amaliyotida inson va uning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uyg'unlashtirilgan.

Kurash g'oyalari va tamoyillari adolatli bo'lganligi uchun ham insondagi his-tuyg'uni yuqori darajaga ko'taradi. Kurash xalqimizning qonida, irsiyatida mujassam bo'lganligi tufayli shaxs ma'naviy tarbiyasiga bevosita aloqador.

Kurash ko'proq kuch emas, aqliy salohiyat, ma'naviy qarashlar majmui ekanini shundan bilish mumkin-ki, polvonlar jamiyatda og'ir-bosiqlik, tantilik timsoli, shunga sodiq bo'lishga intiladi. O'zbek tilida "**polvon**" so'zi har doim tantilik, mardlik, jumardlik kabi so'zlarning sinonimi bo'lib kelgan.

Xalqimizda bellashuvlarda va musobaqalarda tanilgan, g'olib bo'lgan kurashchilarga nisbatan "polvon", "paxlavon", "g'olib" kabi tushunchalar keng ishlatiladi. Insonlar bunday polvonlarga havas bilan qaraydi, natijada, ulardek bo'lish istagi shakllanib boradi. Insonlar g'oliblar, chempionlar timsolida kurashni qadrlaydilar.

Kurashchilar kurash gilamidagina raqib ekanligini bilgani holda bir-birlariga ta'zim qilishadi. Ularning bunday munosabatlari zamirida insonga bo'lgan hurmat mujassamlashgan. Aslida "kurash" so'zi halollik va to'g'rilikni ifodalaydi. Kurash orqali jahon sport maydonlarida o'zbek so'zlari jaranglayotgani haqida ko'p aytiladi... Kurashimiz kadimdan yoshlarimizni xar tomonlama ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlab kelgan bo'lsa, endi 134 dan ortik mamlakat yoshlarini xar tomonlama ma'naviy, ilmiy, falsafiy va jismoniy rivojlanishlariga xizmat qilib kelmokda.

O'tkazilgan tadqiqodlarga ko'ra shunday xulosalarga kelindi:

- Kurash qoidalari va falsafasi insonparvarlik g'oyalariga asoslangan;
- Kurash eng samarali va namunali tarbiya vositasi;
- Kurashning mardlik, jasurlik, halollik, kamtarlikni talab etadigan sport turi;
- Kurash sportchidan jismoniy jixatdan o'ta darajada yetuklikni talab etadi;
- Kurash sportchidan manaviy barkamollikni talab etadi;
- Kurash falsafasi, mohiyati va uning jozibasi butun dunyoga o'rgatishni talab etadi;
- Kurash sporti shaxs ma'naviy tarbiyasiga bevosita aloqadorlikni talab etadi;
- Kurash texnikasi va falsafasi avloddan-avlodga bekuam ko'st o'tib keluvchi sport turi ekanligini ;
- Olib borilgan tadqiqodlarga tayanib quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:
- Jismoniy tarbiya va sport soxasida tayyorlanadigan mutaxassislariga kurash usullari va uning tarbiyaviy xususiyatlarini singdirish;
- Kurashni maktab, akademik litsey, Oliy o'quv yurtlari talabalari jismoniy tarbiyasiga yanada ko'proq tadbiq etish;

Kurashning tarbiyaviy va falsafiy jihatlarini chuqur o'rganish;
Talim tarbiya jarayonida kurash sport turini ilmiy – nazariy taxlil etish;
Kurashimiz kadimdan yoshlarimizni xar tomonlama ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlab kelgan

Jismoniy madaniyat tizimini yanada takomillashtirish, uni jaxon andozalariga yaqinlashtirish orqali milliy sporti turmiz kurash - Osiyo, jaxon, olimpiya o'yinlari sari odimlab yuksak pog'onalarga ko'tarilmoqda.

Xulosa kilib aytganda, kurash sport turi bo'lishi bilan birgalikda inson manaviy, axloqiy, talimiy, jismoniy tarbiya vositasi xamdir. Ta'lim-tarbiya, darslarda, to'garaklarda, sport musobaqalari jarayonlarida yoshlarga kurash millatimizning faxri, iftixori ekanligini, uning shaxsni xar tomonlama ma'naviy, jismoniy uygun rivojlantirishda tutgan o'rni, uning ilmiy ma'lumotlardan keng foydalanish maksadga muvofik xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrdagi «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4881-sonli qarori.
2. Axmedov F.Q, Abdulaxatov A.R." O'zbek kurash milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi". Toshkent 2017 yil.
3. Axmedov F.Q, Abdulaxatov A.R, Xayitov O.T. Kurash sport-qadriyat-manaviyat va tarbiya vositasi. Toshkent 2020 yil.

РОЛЬ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК ПРИ ОБУЧЕНИИ НА ОСНОВЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Мамаджанова Мохимир Рашидовна
Андижанский государственный медицинский институт

Аннотация: в статье рассматривается кредитно-модульная организация учебного процесса, которая определяется автором как технология, обеспечивающая интеграцию качественно-количественных характеристик освоения студентами профессиональных программ с выходом на формирование личностно-профессионального пространства.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, международные стандарты обучения, качество преподавания, балльно-рейтинговая система обучения.

THE ROLE OF THE HUMANITIES IN TRAINING ON THE BASIS OF THE CREDIT-MODULAR SYSTEM

Mamadzhanova Mokhimir Rashidovna
Andijan State Medical Institute

Abstract: the article discusses the credit-modular organization of the educational process, which is defined by the author as a technology that ensures the integration of qualitative and quantitative characteristics of the development of professional programs by students with access to the formation of a personal-professional space.



62	Применение квеста при обучении языку для формирования лингвистических компетенций студентов Абдужалилова Н. А.	683
63	Jahon ta'limida boshlang'ich ta'limning taraqqiyot bosqichlari Kamolov B. X.	689
64	O'quv mashg'ulotini samarali tashkillashtirishda mashq va topshiriqlarni o'quv jarayoniga moslashtirish Bo'ribayeva Sh. A.	694
65	Globalashuv sharoitida yoshlarni turli axborot taxdidlaridan himoyalashning psixologik ijtimoiy shart-sharoitlari Saliyeva D. A.	699
66	Причины конфликтов в студенческой среде Имомов И. А.	706
67	Badiiy asarlarda inson tasviri Hamidova M. O.	710
68	Shaxs ma'naviy-psixologik shakllanishida tafakkurning rolini tadqiq qilish Madgafurova D. O.	716
69	Xalq o'yinlari vositasida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini modellashtirish Alikulov A. A.	722
70	Ona tili va chet tillarini o'rganishda zamonaviy yondashuvlar Ashirbayeva N. A.	726
71	Sog'lomlashtirish tadbirlaridan foydalanish orqali i-iv sinf o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini oshirish Ismoilov T., Alijonov O., G'ofurov M.	730
72	Yoshlarga kurashning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini singdirishning pedagogik asoslari Abdulaxatov A.R.	733
73	Роль гуманитарных наук при обучении на основе кредитно-модульной системы Мамаджанова М. Р.	736
74	Применение иммерсивного подхода в обучении информатике Мамаджанова С. В.	741
75	Integratsion yondashuv mohiyati va nazariy jihatdan tahlili Muslimov Sh. N.	744
76	O'qituvchilar kasbiy sifatlarini shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari Nishonov A. O.	750
77	Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti Dusimbetova N. B.	754
78	Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini tatbiq etishda tarbiyachi mahorati Maxbuba S. A.	764